



SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI





# SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2023-yilning yanvar-iyun oylari  
uchun dastlabki ma'lumot)*



## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 14 652,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 106,4 % ni tashkil etdi.

yanvar-iyun  
mlrd. so'm



yanvar-iyun  
FHI, %






■ mlrd. so'm FHI, %

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (11 737,7 ming. so'm) hamda Jomboy tumanida (7 488,7 ming. so'm) nisbatan yuqoriligini ko'rsatmoqda.





## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2023-yil yanvar-iyun oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 14 652,2 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 106,4 % ni, tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (46,2 %), Jomboy tumani (9,5 %), Samarqand tumani (7,1 %), hamda Utgut (6,9 %), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Bulung'ur tumanida (116,3 %), Oqdaryo tumanida (113,6 %) hamda Qo'shrabot tumanida (109,9 %) kuzatildi.




## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2023-yil yanvar-iyun oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, Ishlab chiqarish 7,7 % ga hamda Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilishda 29,9 % ga, Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 3,4 % ga oʻsishi kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning 42,4 % ga pasayish kuzatildi.

### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 163,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2023-yilning yanvar-iyun oylarida 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali 16,1 % (13,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 19,7 % (17,9 %) va quyi texnologiyalisi 59,8 % (65,5 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,4 % (2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi 10,6 % (2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 23,5 % (2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 39,1 % (2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,2 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyun	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	88,4	29,1	- 59,3
Paxta tolasi, ming t.	25,4	32,2	6,8
Tozalangan paxta yog'i tonna	6 987,0	9 091,0	2 104,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	149,0	201,2	52,2
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g. (buxanka), tonna	326,0	367,5	41,5
Uzum vinosi ming litr	21,1	7,2	-13,9
Aroq ming litr 100 % spirt	36,1	12,6	- 23,5

2023-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 367,5 tonna (2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 12,7 % ga ko'paygan), 29,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (67,1 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

## Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-iyun oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-iyun oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 890 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 49,4 % ga kamaygan.



2023-yil

1 097 dona

2023-yil

50,6 %

2022-yil

2 166 dona

2022-yil

104,5 %

2021-yil

2 072 dona

2021-yil

101,2 %

## Avtobuslar ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-iyun oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-iyun oylarida 383 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,7 % ga kamaygan.



2023-yil

383 dona

2023-yil

79,3 %

2022-yil

483 dona

2022-yil

97,6 %

2021-yil

495 dona


2021-yil

106,7 %






## Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 126,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 10,6 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 118,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 555,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 4,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 115,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,4 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 86,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 493,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 25,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 107,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 29,6 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 113,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4 336,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 115,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,1 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 111,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 164,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 18,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 82,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,7 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 117,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 883,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 110,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 %, fizik hajm indeksi 112,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 419,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.





## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 75,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 133,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 175,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 181,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 %, fizik hajm indeksi 193,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 218,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 138,3 %.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 50,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 173,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 116,8 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 150,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 356,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 111,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 90,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 361,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 13,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 112,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,3 %, fizik hajm indeksi 66,2 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 1 355,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 163,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 57,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	165 120,5	54 072,1	- 111 048,4
Issiqlik energiyasi, ming, gkal	4 089 296,0	3 157 892,4	- 931 313,6


(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %)



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 104,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	17 760,2	25 276,8	7 516,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	50,3	54,7	4,4
Plastmassa chiqindilari, tonna	327,0	1 557,8	2 230,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar


Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm






\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 33,1 % shuningdek, Toyloq 11,6 %, Urgut 11,3 % ni hamda Samarqand tumanlarida 10,6 % ni tashkil etdi




■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 257,0 ming so'm bo'lgan holda, Samarqand shahrida – 2 985,1 ming so'mni, Jomboy tumanida – 2 520,2 ming so'mni, Toyloq tumanida – 2 776,0 ming so'mni va Samarqand tumanida – 2 053,5 ming so'mni tashkil etdi.





Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 202,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 35,5 % ni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari



2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 2 617,5 milliard so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 7,6 % ga oshdi.

2022-yilning shu davriga nisbatan viloyat buyicha o'tacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Bulung'ur tumani (155,4 %), Oqdaryo tumani (131,6 %), Jomboy tumani (124,6 %) hamda Ishtixon tuman (123,1 %) korxonlari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

## Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 50,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 49,7 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 36,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 63,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 107,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 105,9 % ni tashkil etdi.





## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 40,8 % ni, shuningdek, tumanlardan Urgut 13,7 %, Samarqand 9,0 %, hamda Ishtixon tumani 7,7 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi





■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %

## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 25,4 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 14,2 % ni, Toyloq tumani esa 14,2 % ni tashkil etdi.

yanvar-iyun  
mlrd.so'm



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-iyun  
o'sish sur'ati



■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %

## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 276 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 204 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 19,2 %) Samarqand shahriga, 834 tasi (13,3 %) Urgut tumaniga, 645 tasi (10,3 %) Samarqand tumaniga, 528 tasi (8,4 %) Pastdarg'om tumaniga va 386 tasi (6,2 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### Jami yangi tashkil etilgan

**751 ta**

2023-yil yanvar-iyun

**1 013 ta**

2022-yil yanvar-iyun

**1 109 ta**

2021-yil yanvar-iyun



### Jami faoliyat yuritayotgan

**6 175 ta**


2023-yil 1-iyul holatiga

**8 458 ta**

2022-yil 1-iyul holatiga

**7 753 ta**


2021-yil 1-iyul holatiga





## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 618,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,2 % ni tashkil etdi.

yanvar-iyun  
mlrd. soʻm



yanvar-iyun  
ulushi %



■ mlrd. soʻm oʻsish surʼati, %